



## AYOLLAR BANDLIGI MASALASINI HAL ETISHDA DASTURIY VOSITALAR ISHLAB CHIQUISH

**Mirzayeva Manzura  
Maxmudovna**

*AIQI "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dotsenti  
mirzayeva\_m@mail.ru*

**Yangiboyeva  
Raxbaroy  
Mashrabboy qizi**

*AndMI "Mashinasozlik ishlab chiqarishini  
avtomatlashtirish"  
kafedrasida asistenti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada nodavlat yoki davlat korxonalarida, xususiy korxonalarda, fermer xo'jaliklarda, xonadonlarda doimiy, mavzumi va kunlik ishga takliflarini berish hamda imkoniyati bo'yicha ish topishga ko'mak beruvchi soddagina intefeyslid dasturiy ta'minot yaratish asosiy maqsad qilib olingan. Asosan ayollarni mavjud ish o'rinlaridan va taklif etilayotgan ish turlaridan doimiy xabardor qilib borishni, ayollar sharoitiga qarab mos ish tanlash imkoniyatini berishni nazarda tutuvchi dasturiy ta'minot yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:**

Ayollar bandligi, dasturiy vosita, ishga taklif, dialogli rejim, sahifali rejim

**Kirish.**

O'zbekiston — 2030» strategiyasida aks ettirilgan asosiy g'oyalardan biri barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish hamda aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishga qaratilgandir. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati va ilmiy doiralar vakillari hamda xorijiy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etilishi belgilangan. Bunga javoban joriy etilgan dasturiy vositalardan biri, davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali(vacancy.argos.uz). U mamlakatimiz bo'yicha davlat idoralarida

mavjud vakant ish joylari haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Ushbu portalning o'zida bo'sh ish o'rinlari uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etishga hujjatlarni topshirish mumkin. Ushbu axborot tizimiga 4 mingdan ortiq davlat idoralari ulangan. Biroq mamlakatimiz axolisining to'la bandligini davlat korxonalari taminlab bera olmaydi. Davlat korxonalaridan tashqari mamlakatimizda nodavlat xususiy korxonalar, fermer xo'jaliklar faoliyat olib bormoqda. Ulardan tashqari axolimiz turli tadbirkorlik sub'ektlarida ish bilan band. Bu kabi ishlar xaqida ma'lumot beruvchi ommalashgan dasturiy ta'minot yo'q. Nodavlat xususiy korxonalarda, fermer xo'jaliklarda, xonadonlarda doimiy, mavzumi va kunlik ishga takliflarini berish hamda imkoniyati bo'yicha ish topishga ko'mak beruvchi sodda intefeyсли dasturiy ta'minot yaratish biroz muddat uyda o'tirib qolgan ayollarni ishga joylashishida katta ko'mak berishi mumkin.

Asosiy qism. "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2023 yil 12 iyun, PF-93-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida «hamkorlik shartnomalari» asosida tadbirkorlik sub'ektlariga yangi ish o'rni yaratish bo'yicha imkoniyatlar belgilangan. Kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha, axoli daromadini oshirish bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida aholi bandligini ta'minlash masalasining yechimi oydinlashmoqda. Ayollar bandligini taminlash o'ziga xos xususiyatlarga ega, negaki oilaviy sharoit har doim ham ularning ishxonaga borib ishlashiga imkon beravermaydi.

Ayollar o'rtasida ishsizlik darajasi 13.3% ( taqqoslash uchun –dunyo bo'yicha 6.1 %) tashkil etdi. Bu erkaklar o'rtasidagi ishsizlik darajasidan 2 barobar yuqori. Ishsiz ayollarning asosiy qismini o'rta maxsus (65.8%) va o'rta (28.5%) ma'lumotga ega shuningdek, qisman oliy ma'lumotli xotin-qizlar(3.4%) tashkil etadi. Ishsiz ayollarning 44 foizdan ortig'i 15–30 yosh oralig'ida. Xotin-qizlar o'rtasida ishsizlikning eng yuqori ko'rsatkichi Qashqadaryo (15,5 foiz), Surxondaryo (15,0 foiz) va Sirdaryo (4,7%) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Ko'p ayollar bola parvarishi va uy ishlari bilan bog'liq holda uyda o'tirishga qaror qiladi. Bu esa kasbiy mahoratning yo'qolishiga olib keladi. 2021 yilda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan 3–6 yoshli bolalar ulushi 62 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1–6 yoshli bolalar orasida bu ko'rsatkich 30 foizga ham etmagan, ya'ni, bolalarning taxminan 40–70 foizi uyda onalari tomonidan tarbiyalanadi. Bugungi kunda xotin-qizlar bandligini ta'minlash, barcha sohalarda gender tengligiga erishish, mehnat bozorida kamsitishlarga barham berish va ish haqi tengligini ta'minlash butun dunyoda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. XMT hisob-kitoblariga ko'ra, 2023 yilda mehnatga layoqatli aholining mehnat bozorida ishtirok etish darajasi 60% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich erkaklar o'rtasida 71,9% ni, ayollar orasida esa 46,6% ni tashkil qilgan. Umuman olganda, ayollarning iqtisodiy faolligi erkaklarning iqtisodiy faolligidan 1,5% kam.

Turli ijtimoiy tarmoqlarda ishga taklif beruvchi ko'plab e'lonlar berilmoqda, shuningdek ishga qabul qilish bo'yicha bir necha saytlar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu maqola ham aynan ayollar sharoitini, imkoniyat darajasini e'tiborgan olgan holda ish topishga ko'mak beruvchi dastur ta'minot yaratish borasida qilinayotgan ishlarni tavsiflashga qaratilgandir.

Hozirda "Ayollarga ish darchasi" deb nomlanuvchi dasturiy ta'minot ustida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Dastur ish beruvchilar va ishlash istagini bildirganlar, viloyat va tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari hamda shu sohadagi mutaxassislar o'rtasida o'zaro yaqin munosabat o'rnatishni nazarda tutadi. Ushbu tabqiqot ishi oila va xotin-qizlar qo'mitasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmonining 5.2-bandiga asosan ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlari doirasida tashkil qilingan "Olima ayollar" tanlovi 86-turi tanloviga "Ayollar bandligi masalasini hal etish uchun "Ayollarga ish darchasi" dasturiy ta'minotini ishlab chiqish" mavzusida taqdim qilingan

Ushbu "Ayollarga ish darchasi" deb nomlanadigan dastur quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- axolini respublika bo'yicha ish joylari, turlari va sharoiti bo'yicha axborot bilan taminlash;
- nodavlat xususiy korxonalar, fermer xo'jaliklari, tadbirkorlik sub'ektlari, xonadonlar o'zlarida mavjud ish turlarini ma'lumotlar bazasiga kiritish va shu bo'yicha ishchilar qabul qilish;
- ishlashni xoxlovchilar o'zlarining imkoniyatlarini ma'lumotlar bazasiga kiritib, shu bo'yicha ish berishlarini so'rash;
- ish beruvchilar va ishchilarga ish yakunida jarayon bo'yicha fikr qoldirish;
- ma'lumot kiritgan har bir foydalanuvchi o'z ma'lumotini taxrirlash.

Dastur quyidagi ikki toifadagi foydalanuvchilarga o'z imkoniyatlarini taqdim etadi: 1-toifa ro'yhatga olingan foydalanuvchilar, 2-toifa mehmon sifatida tashrif buyuradigan foydalanuvchilar. Ro'yhatga olingan foydalanuvchilarga yuqorida keltirilgan barcha imkoniyatlardan foydalanishga ruhsat etiladi. Mehmon sifatida tashrif buyurgan foydalanuvchilar esa faqat ma'lumot olish imkoniyatiga ega, ular bazaga ma'lumot joylash, taxrirlash va o'chirish imkoniyatlariga ega bo'lmaydilar. Mehmon sifatida tashrif buyurgan foydalanuvchilar dastur orqali olgan ma'lumoti bo'yicha ish beruvchi yoki ishlash istagini bildirganlar bilan bog'lanishi uchun telefon raqamlaridan foydalanishi mumkin bo'ladi xolos, dasturning bazasida ma'lumot qoldira olmaydi.

Ro'yhatga olingan foydalanuvchilar, bular maxsus muloqot oynasi orqali o'zlari haqida ma'lumotni bazaga kiritadigan jismoniy yoki yuridik shaxslardir. Jismoniy shaxslar ismi-sharifi va tug'ilgan sanasi, yuridik shaxslar nomi va manzili bo'yicha ro'yxatga olinadi. Foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlar login va parol orqali ximoyalanadi.

Dasturiy ta'minot o'z tarkibidagi ma'lumotlar bazasini boshqarish bilan faoliyat ko'rsatadi. Ish beruvchilar uchun va ishlash istagini bildirganlar uchun aloxida muloqot oynalari orqali ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Dastur mutloqo erkin, biror tashkilot orqali boshqarilmaydi va hech kimga hech qanday majburiyat yuklamaydigan shaklda internet tarmog'iga joylanadi. Faqat kiritilayotgan ma'lumotlar fuqorolik axloq normalariga javob berish-bermasligi administrator orqali nazorat qilinadi. Nomaqbul kiritilgan ma'lumot bazadan o'chirib yuboriladi.

Muammoning ilmiy echimini ta'minlash yaratiladigan axborot tizimining strukturasi aniqlash ya'ni tizim tarkibiga kiritiladigan ma'lumotlar bazasi jadvallari, ularni shakllantirish uchun ma'lumotlarni saralash, jadvallar o'rtasidagi bog'lanishlarni belgilash usullari bilan hal etiladi. Loyihadagi axborot tizimi HTML, CSS, Java Script, MySQL, PHP kodlaridan foydalanilgan holda yaratiladi. Lokal server orqali dasturning ishlashi tekshirilib sozlab boriladi. Dastur to'la yaratilganda institut serveriga joylash ko'zda tutilgan. Buning uchun institut serveri imkoniyatini oshirish zarur bo'ladi. Hozirgi holati faqat kichik tajriba o'tkazishga imkon beradi xolos.

Dastur ikki xil rejimda ishlashga moslashtiriladi: dialogli rejim va sahifali rejim. Dialogli rejim sodda dialoglar bilan ma'lumotlar bazasini boshqarishga mo'ljallanadi. Sahifali rejim menyular orqali muloqat oynalariga kirib ma'lumotlar kiritish va ko'rish imkoniyatini beradi. Bu ikki rejim loyihada belgilangan ayollar bilim darajasiga qarab foydalanishini tashkil etish maqsadini amalga oshiradi.

Dastur orqali foydalanuvchi doimiy ish joyi, mavsumiy ish joyi, kunlik ish joylarini taqdim etish, uyga ish olish bo'yicha takliflar berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ishlash istagini bildirganlar o'zining imkoniyati va sharoitlarini to'la to'kis kiritib shunga qarab mos ish beruvchi bilan aloqa bog'lashi mumkin bo'ladi.

Dasturning yana bir ahamiyatli jixati shundaki ish beruvchilar va ishchilar ish yakunida jarayon bo'yicha fikr qoldirishi mumkin. Qoldirilgan fikr o'zgartirilmaydi va keyingi murojatlarda ularni ko'rish mumkin bo'ladi. Bu talabgorning qaror qabul qilishida ahamiyatga ega bo'ladi. O'zlari xaqida salbiy fikr bo'lmasligi uchun ish beruvchilar va ishchilar o'z ishiga e'tibor bilan yondoshishga, madaniyatli munosabatda bo'lishiga undaydi.

«Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasida Elektron hukumatni rivojlantirish maqsadida iste'molchilar talabidan kelib chiqqan holda ochiq davlat ma'lumotlarini ishlab chiqish, shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, «ochiq ma'lumotlar»ga asoslangan davlat mobil ilovalari va dasturlari ulushini oshirish hamda davlat ma'lumotlarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish orqali davlat boshqaruvida ma'lumotlarni to'plash va raqamlashtirish uchun kerak bo'lgan barcha resurslarni yaratish orqali asoslangan qarorlarni qabul qilishni avtomatik ravishda shakllantirish belgilangan.

Xal etilishi ko'zda tutilgan muammo - axoli bandligiga ko'maklashish bu davlat miqyosidagi muammo bo'lib uni o'rganish va xal etish bo'yicha qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasida ko'rsatilgan geografik joylashuvidan qat'iy nazar, fuqarolarning o'sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish masalasining qo'yilganligi bandlikka ko'maklashish kambag'allikni qisqartirish muammolarini xal etishda raqamli texnologiyalarni qo'llashga keng imkoniyat yaratdi.

Ilg'or mamlakatlar ilm-fanidagi ilmiy-tadqiqotning barcha yo'nalishlari raqamli texnologiyalar asosida rivojlanmoqda. Ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi deyarli raqamlashtirilgan. Hozirda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar keng ommalashmoqda. Loyixada ko'rilayotgan masala rivojlangan mamlakatlarda yuqori darajada xal etilgan.

Xususan, axoli bandligiga ko'maklashish maqsadida bir necha ish qidirish veb-saytlari mavjud, masalan, AQShda INDEED, LINKEDIN, Glassdoor, CAREERBUILDER, MONSTER, Evropada LINKEDIN, YAXSHI, XING, GLASSDOOR Osiyo mamlakatlarida Zhaopin, 51job, Boss Zhipin, Lagou, Liepin. Zhaopin ish qidirish vositalari keng qo'llaniladi. Har bir platforma o'z mamlakatlari yoki mintaqalaridagi hukmron sanoat va mehnat bozori tendenssiyalariga qarab turli yo'nalishlarga ega. Har bir platformaning foydalanuvchi bazasi va geografik qamrovi har xil. Ularda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotni bizning mamlakatimizga shunday olib kelib qo'llash imkonsiz. O'zbekistonda Headhunter.uz, Uzjobs.uz, Mehnat.uz, Uzautojobs.uz, Flagma.uz, vacancy.argos.uz nomlar bilan tanilgan ish qidirish platformalari mavjud. Ular mamlakatimiz bo'yicha davlat idoralarida mavjud vakant ish joylari haqida ma'lumot olish imkonini beradi

Ma'lumki, axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish hozirgi zamonning dolzarb masalasidir. Bu masalani axoli turmush tarzini va ehtiyojini e'tiborga olgan holda xalq etish muximdir. Maxalliy xalq talabiga mos tushinarli bo'lgan axborot texnologiyalari, xususan dasturiy ta'minot yaratish yoki majudlarini moslashtirish faqat mahaliy mutaxassislar zimmasidadir.

Nodavlat yoki davlat korxonalarida, xususi korxonalarda, fermer xo'jaliklarda, xonadonlarda doimiy, mavzumi va kunlik ishga takliflarini berish hamda imkoniyati bo'yicha ish topishga ko'mak beruvchi sodda interfeysli dasturiy ta'minot yaratish tadqiqotning asosiy maqsadi qilib olingan. Asosan ayollarni mavjud ish o'rinlaridan va taklif etilayotgan ish turlaridan doimiy xabardor qilib borishni, ayollar sharoitiga qarab mos ish tanlash imkoniyatini berishni nazarda tutuvchi dasturiy ta'minot yaratish rejalashtirilgan.

Ushbu tadqiqot pirovard natijasida taqdim etiladigan dasturiy ta'minot orqali ayollar orasida ishsizlikni maksimal darajada qisqartirishga erishish mumkin bo'ladi. Mumkin qadar soddalashtirilgan interfeysga ega bo'lgan ushbu dastur ish beruvchilar va ishga kiruvchilar uchun birday axamiyatga ega. Dastur respublika miqyosida axborot berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa mamlakat bo'ylab ishchi kuchini taqsimlanishiga ham yordam beradi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi, bandlikka ko'maklashish maqsadida, butun mamlakat bo'yicha ma'lumot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va amaliy qo'llash uchun sodda dialogli ochiq axborot tizimi yaratilishi bilan belgilanadi. Qo'yilgan vazifani hal etish va rejalashtirilgan natijalarni olish imkoniyatlari simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish va mamlakatni tezkor internet tarmog'i bilan taminlash masalalari bilan bog'liq.

Bugungi kunda mamlakatni internet tarmog'i bilan taminlash bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Mobil qurilmalaridan foydalanmaydigan axoli punktlari yo'q. Rejalashtirilayotgan dasturiy ta'minot yaratilganda uning ommalashuvi uchun etaralicha imkoniyat mavjud

Ishsiz ayollarning asosiy qismi o'rta maxsus va o'rta ma'lumotga ega. Ularni ish bilan bandligini oshirish uchun ko'mak beradigan raqamli axborot tizimi aynan shularni bilim darajasi bilan tushina oladigan ko'rinishda bo'lishi muximdir. Ishsiz ayollar ijtimoiy holatini, bilim darajasini o'rganish va shu asosda ularning bandligiga ko'mak beradigan axborot tizimini ishlab chiqish loyixaning vazifasidir. Ishsiz ayollarni

raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim darajasini o'rganishda oilalarni mobil qurilmalari bilan ta'minlanganligi ko'rib chiqiladi. Rejalashtirilgan natijaga erishish simsiz va mobil texnologiyalarning har bir xonadonga kirib borishi imkoniyati orqali amalga oshadi

O'zbekistonda aholi soni 37 milliondan oshdi. Ayollar soni 18 milliondan ortiqdir. Ular orasida ishlashga muxtoj, lekin doimiy ish joyida ishlashga sharoiti yo'q ayollar bor. Biror bir kasbni egallamagan ayollar ham borki, ular o'zlari uchun ish tanlashiga biror dastak yo'q. Bu toifadagi ayollar soni juda o'zgaruvchan. Shu kabi ishsiz ayollar sharoitini aniqlash va ularga mos ish turlarini yaratish zaruratiga baho berish va ish bilan taminlashga ko'maklashish masalasidagi muammolarni hal etilishi tadqiqotda ko'zda tutilgan.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijasida axolining turli qatlamlari va turli maqomdagi korxonalar o'rtasida ish topish va ish berish bo'yicha yaqin aloqa o'rnatuvchi dasturiy ta'minot yaratiladi. Bu bilan Veb texnologiyalar asosida ijtimoiy munosabatlar sohasida raqamlashtirish masalasi amalga oshiriladi. Natija iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlantirishning «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga muvofiq keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar royhati.**

1. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni.

2. Aripov M. WEB texnologiyalari: o'quv qo'llanma / M .Aripov, S.D ottoyev, M.Fayziyeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. — 280 b.

3. Кузнецова, Л. В. Лекции по современным веб-технологиям / Л. В. Кузнецова. – Москва : Интернет-Университет Информационных Технологий (ИНТУИТ), 2010. – 165 с